AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA YER VA SUV MASALALARI

Abdumavlonov Umarjon Komiljon o'g'li
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti
Tarix fani yo'nalishi 1 kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur tezisda Amir Temur davridagi yer egaligi va suv munosabatlari temuriylar davrida ham davom etganligi, bu mulk shakllari mamlakat iqtisodini ko‘tarishda muhim omil bo‘lib xizmat qilganligi muhokama etilgan. Lekin yerlarni shaxzodalar o‘rtasida suyurg‘ol qilib taqsimlanishi, davlatning siyosiy jarayonlariga salbiy ta’sir qilganligi, bu Sohibqiron Amir Temur davlatining inqirozini temuriylar davrida kuchayishiga olib kelganligi tarixiy manbalarga asoslanib yoritib berilgan.
Kalit so‘zlar: Yer egaligi, yer egaligi munosabatlari, mulk shakllari, suyurg‘ol, Tarxon, vaqf mulki, davlat yerlari, xususiy yerlar.

KIRISH

Temuriylar davrida davlatning iqtisodiy hayotida yer egaligi asosiy o‘rinni tutgan bo‘lib, bu davrda ham, avvalgi davrlarda bo‘lganidek, butun XV asr davomida Movarounnahr va Xurosonda yer va mulkchilikning asosan to‘rt shakli: «mulki devoniy» — davlat yerlari, «mulkiy»–xususiy yerlar, «mulki vaqf» — madrasa va boshqa diniy idoralar tasarrufidagi yerlar va nihoyat « jamoa yerlari» bo‘lgan. Dehqonchilik yerlarining katta qismi davlat mulki hisoblangan. Bu yerlarga avvalgidek mamlakat hukmdori — sulton yoki amirlar egalik qilgan. Temuriylar davrida ham davlat yerlarini suyurg‘ol tarzida in’om qilish keng tarqalgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Suyurg‘ol yerlari maydoni, sharti hamda yer va yorliqqa ega bo‘lgan shaxslarning tabaqasi jihatidan turlicha bo‘lgan. Odatda, shahar yoki viloyatlardan tortib, to alohida qishloqqacha suyurg‘ol shaklida in’om etilgan. Butun bir shahar yoki viloyatlar ko‘pincha hukmron sulola namoyandalari yoki yirik harbiy va davlat mansabdorlariga berilgan. Bunday suyurg‘ol yer va mulklar ko‘pincha avloddan-avlodga meros bo‘lib qolgan. Suyurg‘ol egasiga o‘z suyurg‘oli doirasida amaldorlar tayinlash, soliqlar va turli to‘lovlarni to‘plash hamda aybdorlarni jazolash huquqi berilgan. Shohrux davrida Xorazm — Shohmalikning; Farg‘ona — Mirzo Ahmadning; Tus, Mashhad, Obivard, Nisoni o‘z ichiga olgan Xuroson — Boysung‘ur Mirzoning; Qobul, G‘azna va Qandahor viloyatlari Mirzo Qaydu Bahodirning suyurg‘oli edi. Suyurg‘ol yorlig‘iga ega bo‘lgan viloyat hukmdorlari markaziy hokimiyatga faqat nomigagina qaram bo‘lib, odatda, ular deyarli mustaqil edi. Suyurg‘ol egalari tobeligini kuchaytirish maqsadida markaziy hokimiyat ba’zan ular tasarrufiga yer maydonlarini qisqartirar yoki ularning ma’muriy va adliya jihatidan haq-huquqlarini cheklab qo‘yar edi. Suyurg‘ol egasi markaziy hukumatga bo‘ysunmagan taqdirda suyurg‘ol huquqidan mahrum bo‘lar va hokimiyat uning viloyatini boshqa shaxsga berar edi. Bo‘ysunmagani uchun Shohrux 1414 yilda Mirzo Iskandarni, 1415 yilda esa Mirzo Boyqaroni suyurg‘oldan mahrum qilgan.

Temuriylar davrida maydoni jihatdan mayda va suyurg‘ol egasining haq-huquqi ancha-muncha cheklangan suyurg‘ol yerlari ham bo‘lgan. Bunday mayda suyurg‘ol yerlari, odatda, xizmat ko‘rsatgan kichik mansabdagi harbiylardan tortib, oliy hukmdorning gvardiyasidagi muntazam qo‘shinlarigacha berilgan. Boburning yozishicha, Sulton Husayn Boyqaroning 14 minglik gvardiyasi va 40 minglik muntazam qo‘shini (g‘ul)ning har bir askariga 80 jarib, ya’ni 40 tanobdan yer berilgan. Navkarlarga berilgan bu yerlardan ham mutlaqo soliq va to‘lovlar olinmagan [2].

Dehqonchilik maydonlarining boshqa kattagina qismi mulk maqomidagi xususiy yerlardan iborat edi. Shubhasiz, yirik mulkdorlarning katta yer maydonlari ham xususiy mulk yerlari qatoriga kirgan. Mulk yerlarining katta qismi ma'muriy, harbiy va diniy arboblarning tasarrufida bo'lgan. Masalan, eng yirik mulkdorlardan Xo'ja Ahrorning 1300 ga yaqin yer-mulki bor edi. Bu mulklarning 300 qo'shga teng bo'lgan.

Bu davrda hukmdor tomonidan yirik mulk egalariga biron xizmati uchun tarxonlik yorlig'i berish urf bo'lgan. Tarxonlik yorlig'ini olgan mulkdorlar barcha soliq, to'lov va majburiyatlardan ozod qilingan. Tarxonlik yorlig'i, odatda, amir, bek, saroy amaldorlari, sayidlar va boshqa yuqori tabaqa vakillariga berilgan. Bunday yorliqni olishga muyassar bo'lgan mulkdor ismiga «tarxon» so'zi qo'shib aytilgan. Tarxonlar ko'pchiligi juda boy bo'lgan. Masalan, bu davrda Hirot atrofidagi mulklar Darveshali Tarxon, Samarqand va Buxoro atrofidagi katta yer maydonlari Abuali Tarxon qo'lida edi. Bobur Abuali Tarxonning shohona hayotini tasvirlar ekan, uning hashamatli saroyi, xizmatida uch ming kishidan iborat xizmatkoru navkarlari, o'tkazgan dabdabali to'y-tomoshalari, bergan qimmatbaho sovg'a-salomlari, xalqqa qilgan jabr-zulmlari to'g'risida yozadi [3].

Temuriylar hukmronligining so'nggi davrida Buxoro, Samarqand, Shahrisabz va boshqa viloyatlarning dehqonlaridan hamda shahar aholisidan yig'iladigan davlat daromadlarining anchagina qismi tarxonlar qo'lida edi. Movarounnahrda ular katta iqtisodiy bazaga ega bo'lgan. Mamlakatning siyosiy hayotida ham tarxonlarning nufuzli kuchli bo'lib, katta siyosiy huquqdan foydalanar edilar. Hatto o'zaro nizo janjallar vaqtida tarxonning qo'llab-quvvatlashi birorta viloyat hokimining taqdirini belgilashda ba'zan hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan.

XV asrda ham avvalgi davrlardagidek katta yer maydonlari va sug'orish tarmoqlari, shuningdek ko'plab do'kon, korxona, obijuvoz, bozor, karvonsaroylar, masjid, madrasa, xonaqoh, maqbara va mozorlarga biriktirilib, ular mulki vaqf deb atalgan. Temuriylar davrida ham Movarounnahr va Xurosonda ko'plab masjid, madrasa, xonaqoh, maqbara va shifoxonalar bino qilinib, ularning barchasi vaqf mulkiga ega edi. Vaqf mulklaridan tushgan daromad masjid, madrasa, shifoxona va xonaqohlarning ta'miri, jihozi, shuningdek mutavalli, mudarris, tabib va talabalarga beriladigan nafaqalar hamda langarxona (musofirxona) va shifoxonalarning kundalik xarjlari (oziq- ovqat, yoqilg'i va yoritqichlari) uchun sarf etilgan [4].

Bu davrda dehqonchilik yerlarining ma'lum bir kichikroq qismi qishloq aholisining umumiy tasarrufida bo'lgan. Bunday yerlar qishloq to'plari yoki jamoalarining mulki hisoblangan. Jamoa yerlari mulkchilikning qadimiy turlaridan bo'lib, ular ko'proq tog' oldi nohiyalarning suvga muhtoj joylarida keng tarqalgan.

XULOSA VA MUNOZARA

Amir Temurning ba'zi bir vorislari uning davrida joriy etilgan soliq miqdori va to'lov tartibini buzmaslikka, suiste'mollikni oldini olishga harakat qilganlar. Tartibga rioya qilmagan ayrim ma'murlarni jazoga tortganlar.

Xulosa qilganda, Sohibqiron Amir Temur davridagi yer egaligi temuriylar davrida ham davom etdi. Bu mulk shakllari mamlakat iqtisodini ko'tarishda muhim omil bo'lib qoldi. Lekin yerlarni shaxzodalar o'rtasida suyurg'ol qilib taqsimlanishi, davlatning siyosiy jarayonlariga salbiy ta'sir qildiki, bu Sohibqiron Amir Temur davlatining inqirozini temuriylar davrida, kuchayishiga olib keldi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Temur Tuzuklari. «G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at». — 1996. — b.73.
2. Muhammadjonov A. Temur va temuriylar saltanati. — «Qomuslar bosh tahririyati». 1996. — b. 68.
3. Тохирова, М. О. (2021). МАКТАБДА ФИЗИКА ҚОНУНЛАРИГА ДОИР ФАНЛАРАРО ТАТБИҚИЙ ГРАФИК МАСАЛАЛАРНИ ЕЧИШ МЕТОДИКАСИ. *Academic research in educational sciences*, *2*(CSPI conference 3), 626-631.
4. Otaqo‘Ziyevna, T. M., & Xonzodabegim, A. (2022). YORUG’LIKNING TARQALISHI, QAYTISHI VA SINISHI MAVZUSINI ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNALOGIYALARI ASOSIDA TASHKIL ETISH USULLARI. *Ta’lim fidoyilari*, *22*(7), 452-457.
5. Toxirova, M. (2021). Maktabda fizika qonunlariga doir fanlararo tatbiqiy grafik masalalarni yechish metodikasi. *Zamonaviy ta’limda matematika, fizika va raqamli texnologiyalarning dolzarb muammolari va yutuqlari. Chirchiq davlat pedagogika instituti mavzusidagi respublika ilmiy amaliy konferensiyasi to’plami*, *11*, 874-877.
6. Otaqo’ziyevna, T. M. (2022). METHODS OF SOLVING FINITE ISSUES OF APPLICATION OF NEWTON'S LAWS IN SCHOOL. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, *11*(07), 29-33.
7. Bazarova, N. S., & Ziyadullaev, S. K. (2021). THE SIGNIFICANCE OF POLYMORPHIC GENES OF MATRIX METALLOPROTEINASES (MMP) AND THEIR TISSUE INHIBITORS IN THE DEVELOPMENT OF DISORDER OF KIDNEY FUNCTION IN CHRONIC GLOMERULONEPHRITIS IN CHILDREN. *European journal of molecular medicine*, *1*(4).
8. Bazarova, N. S., Ziyadullaev, S. K., & Shadieva, H. N. (2022). COMPREHENSIVE ASSESSMENT OF VARIOUS FORMS OF CHRONIC CHRONIC NEPHRITIC SYNDROME IN CHILDREN. *World Bulletin of Public Health*, *14*, 6-10.
9. Базарова, Н. С., & Зиядуллаев, Ш. Х. (2022). Современные аспекты полиморфных генов матриксной металлопротеиназ и ее тканевых ингибиторов у детей с хроническим гломерулонефритом и прогноз заболевания. *журнал гепато-гастроэнтерологических исследований*, *3*(1).
10. Do‘stnazarova S., Xasanov A.Sardoba – o‘rta asrlar asl mo‘jizasi // Ekologiya xabarnomasi, № 6. – Toshkent: ECO TEXTILE PRODUCT, 2020. – B. 40.
11. Mavlonov O‘. Markaziy Osiyoning qadimgi yo‘llari: shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. Monografiya. – Toshkent: Akademiya, 2018. – B. 202.
12. Rustamovich, A. T. (2022). Artistic system of author's thinking “Notes from the Underground” by FM Dostoevsky and “A Hero of Our Time” by M. Yu. Lermontov. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, *11*(12), 236-239.
13. Аюпов, Т. Р. (2023). «ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ РЕАЛИИ» В ПРОЗЕ ПЕЛЕВИНА. *Universum: филология и искусствоведение*, (1 (103)), 31-34.